
TOSHLOQ TUMANIDA IJTIMOY OB'YEKTLARNING ISITISH TIZIMLARI YAXSHILANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy soha ob'yektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Toshloq tumanida ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi prezidenti qaroriga muvofiq hududlarda faoliyat yuritayotgan davlat ijtimoiy soha ob'yektlarini ko'mir yoqilg'isiga o'tkazish orqali kuz-qish mavsumida issiqlik energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, qozonxonalarni modernizatsiya qilish hamda muassasalarning issiqlik tizimini ta'mirlash va belgilangan me'yorlarda ishlashini ta'minlash davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektor ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Shu kunlarda Toshloq tumanidagi ijtimoiy soha ob'yektlarini kuz-qish mavsumida issiqlik energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash maqsadidagi ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

Tumandagi 52 ta umumta'lim maktablari, 17 ta tibbiyot muassasasi hamda 3 ta madaniyat va sport ob'yektlari DXSH asosida boshqarilib, "Rayyona biznes ta'mir" MCHJ tomonidan modernizatsiya ishlari olib borilmoqda. Shu kunga qadar 93 ta ob'yektlarda yangi qozonlar o'rnatilib ishga tushirildi. Jami 5 316 tonna ko'mir mahsulotlari keltirib, zahiraga olindi.

Ayni kunlarda Toshloq tumanida kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'yektlarini barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida barcha chora-tadbirlar muddatida bajarilmoqda.

2023-09-21 17:42:34